TOSHKENT VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# TOSHKENT VILOYATIDA

# QURILISH ISHLARI

## 2024- YIL
## YANVAR-IYUL

**2024- yilning yanvar-iyul oylarida, Toshkent viloyatida jami 9 238,1 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 111,9%ni tashkil etdi.**



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.



# 2024- yil 1-avgust holatiga ko‘ra qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar, *birlikda*




**1188** — Bino va inshootlar qurish

**354** — Fuqarolik obyektlarini qurish

**869** — Ixtisoslashtirilgan quilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘ rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2023- yilning shu davriga nisbatan 84,5 foizni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 49,3 foiz ulushni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 81,0 foizga yetdi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 14,7 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati 97,5 foizga yetdi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi esa 36,0 foiz ulushni va o‘tgan yilga nisbatan 85,0 foizni tashkil etdi.

# Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar, *birlikda*

| | Holatiga: | | o‘tgan yilga nisbatan, %da |
|---|---|---|---|
| | 01.08.2024- y. | 01.08.2023- y. | |
| **Toshkent viloyati** | **2411** | **2852** | **84,5** |
| ***shaharlar:*** | | | |
| Nurafshon | 110 | 126 | 87,3 |
| Olmaliq | 108 | 129 | 83,7 |
| Angren | 144 | 164 | 87,8 |
| Bekobod | 105 | 115 | 91,3 |
| Ohangaron | 85 | 102 | 83,3 |
| Chirchiq | 259 | 280 | 92,5 |
| Yangiyo‘l | 68 | 79 | 86,1 |
| ***tumanlar:*** | | | |
| Oqqo‘rg‘on | 44 | 61 | 72,1 |
| Ohangaron | 54 | 62 | 87,1 |
| Bekobod | 76 | 91 | 83,5 |
| Bo‘stonliq | 94 | 107 | 87,9 |
| Bo‘ka | 79 | 110 | 71,82 |
| Quyi Chirchiq | 47 | 63 | 74,6 |
| Zangiota | 193 | 209 | 92,3 |
| Yuqori Chirchiq | 143 | 175 | 81,7 |
| Qibray | 259 | 293 | 88,4 |
| Parkent | 79 | 100 | 79 |
| Piskent | 57 | 57 | 100,0 |
| O‘rta Chirchiq | 115 | 146 | 78,8 |
| Chinoz | 74 | 91 | 81,3 |
| Yangiyo‘l | 89 | 134 | 66,4 |
| Toshkent | 129 | 158 | 81,7 |

# 2024- yil 1-avgust holatiga ko‘ra Toshkent viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, *%da*

**Qibray (10,7)**



**Chirchiq sh. (10,7)**



**Zangiota (8,0)**





# Qurilish ishlari
# 2024- yil yanvar-iyul oylari uchun

| | Qurilish ishlari, mlrd. so‘m | shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | yirik qurilish tashkilotlari | kichik va mikrofirmalar | norasmiy sektor |
| **Toshkent viloyati** | **9238,1** | **1762,5** | **5068,8** | **2406,8** |
| **shaharlar:** | | | | |
| Nurafshon | 384,4 | 6,8 | 341,7 | 35,9 |
| Olmaliq | 1314,5 | 988,4 | 260,3 | 65,8 |
| Angren | 289,4 | 30,4 | 210,5 | 48,5 |
| Bekobod | 334,5 | 68,9 | 213,5 | 52,1 |
| Ohangaron | 66,2 | 9,3 | 25,1 | 31,8 |
| Chirchiq | 900,7 | 50,5 | 805,8 | 44,4 |
| Yangiyo‘l | 212,3 | 0,7 | 180,3 | 31,3 |
| **tumanlar:** | | | | |
| Oqqo‘rg‘on | 193,3 | 0 | 127,6 | 65,7 |
| Ohangaron | 195,4 | 6,3 | 123,4 | 65,7 |
| Bekobod | 99,3 | 6,8 | 52,9 | 39,6 |
| Bo‘stonliq | 319 | 106,7 | 85 | 127,3 |
| Bo‘ka | 185,8 | 44,5 | 70,5 | 70,8 |
| Quyi Chirchiq | 344,2 | 1,7 | 270,5 | 72 |
| Zangiota | 662,9 | 10,7 | 433,2 | 219 |
| Yuqori Chirchiq | 552,8 | 47 | 400,5 | 105,3 |
| Qibray | 831,1 | 334,4 | 155,2 | 341,5 |
| Parkent | 301,4 | 0,8 | 256 | 44,6 |
| Piskent | 165,5 | 17,8 | 75 | 72,7 |
| O‘rta Chirchiq | 298,7 | 0 | 161 | 137,7 |
| Chinoz | 151 | 3,1 | 47,4 | 100,5 |
| Yangiyo‘l | 760 | 22,2 | 615,5 | 122,3 |
| Toshkent | 675,7 | 5,5 | 157,9 | 512,3 |



**2024- yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1762,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2023- yilga nisbatan 104,7 %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2023- yildagi ko‘rsatkich darajasidan 13,0% punktga kamayib, 19,1 %ni tashkil etdi.**

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

**2024- yilning yanvar-iyul oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 54,9 %ni to‘g‘ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 1,5 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 108,1 %ni tashkil etgan holda 5 068,8 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.**

**Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, %da**

**54,9**
2024- yil
Yanvar-iyul

**56,3**
2023- yil
Yanvar- iyul





*MA’LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Chirchiq shaxri (805,8 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 15,9 % ), Yangiyo‘l tumani( 615,5 mlrd. so‘m yoki 12,1 %) Zangiota tumani (433,2 mlrd. so‘m yoki 8,5 %) ga to‘g‘ri keldi.*

# Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

**Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 26,0 % tashkil etdi yoki 2 406,8 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2023- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 127,2 %ni tashkil etdi.**

| 2023 yil yanvar-iyul | 2024- yil yanvar-iyul |
|---|---|
| **1788,9** *mlrd. so‘m* | **2406,8** *mlrd. so‘m* |
| **23,4%** | **26,0%** |

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda**




Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **238,9** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **8 999,2** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,6 %** va **97,4 %**ni tashkil etdi.

Davlat mulki    Nodavlat mulk

***Ma'lumot uchun:*** ***Qurilish biror inshootni tayyorlash jarayoni, shuningdek shunday jarayon ketayotgan joydir. Qurilish murakkab jarayon bo'lib, unda bir necha vazifalar amalga oshiriladi. Qurilish — moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri; turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuri-tish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot); keng ma'noda yaratuvchilik jarayoni. Tugallangan va foydalanishga topshirish uchun tayyorlangan ishlab chiqarish korxonalari, turar joylar, jamoat binolari, inshootlari va boshqa obyektlar Qurilish mahsu-lotlari hisoblanadi.***

***Qurilish O'zbekiston Respublikasidagi moddiy ishlab chiqarishning eng muhim tarmoqlaridan birini tashkil etadi. Respublika iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulot tarkibida salmog'iga ko'ra Qurilish sanoat va qishloq xo'jaligidan keyin 3-o'rinda turadi.***

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**

Aloqa telefoni: ***(71) 202-86-70***